

SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TA'LIM JARAYONIDA SAMARALI FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Amirova Lobar Usmon Qizi

Annotatsiya

Mazkur tezisdan sun'iy intellekt vositalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Unda sun'iy intellektning ta'limni individuallashtirish, o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellektidan noto'g'ri foydalanish natijasida tayyor javoblarga haddan tashqari tayanish, mustaqil va tanqidiy fikrlashning susayishi, axborotning ishonchliligini aniqlash hamda akademik halollik bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkinligi ko'rib chiqiladi. Ta'limda sun'iy intellektidan samarali foydalanishning pedagogik shartlari sifatida aniq ta'limiy maqsadni belgilash, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'qituvchi nazorati va pedagogik yo'naltirishni ta'minlash hamda etik va xavfsiz foydalanish tamoyillariga rioya qilish taklif etiladi. Shuningdek, AI'dan foydalanishning "maqsad → AI yordamida izlanish → mustaqil tahlil → tekshirish → xulosa → refleksiya" ketma-ketligi asosida pedagogik modeli taklif qilinadi.

Kalit so'zlar:

sun'iy intellekt, AI vositalari, ta'lim jarayoni, raqamli ta'lim, pedagogik shart-sharoitlar, mustaqil ta'lim, tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, akademik halollik, raqamli kompetensiya.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt asosidagi vositalarning keng tarqalishi ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi pedagogik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt yordamida axborotni izlash, matn va o'quv materiallarini yaratish, savollarga javob olish, individual topshiriqlarni shakllantirish hamda o'quv materiallarini o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Biroq sun'iy intellektidan ta'lim jarayonida foydalanish faqat texnologik imkoniyatlarni joriy etish bilan cheklanmasligi kerak. Chunki AI tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tanqidiy baholamasdan qabul qilish, tayyor javoblarga ortiqcha tayanish va topshiriqlarni mustaqil bajarmaslik o'quvchining bilish faolligi hamda mustaqil fikrlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellekt kompetensiyalari doirasida inson markazidagi yondashuv, AI etikasi, AI texnologiyalari va tizimlarini tushunish hamda ulardan mas'uliyatli foydalanish kabi kompetensiyalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa sun'iy intellektdan ta'limda foydalanish masalasini faqat texnologik emas, balki muhim pedagogik muammo sifatida tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, asosiy masala "AI'dan foydalanish yoki foydalanmaslik" emas, balki "AI'dan qanday pedagogik maqsadda va qanday shart-sharoitlar asosida foydalanish kerak?" degan savoldan iborat.

Asosiy qism

Sun'iy intellektning ta'limdagi asosiy afzalliklaridan biri ta'lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatidir. O'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlaridan kelib chiqib turli murakkablikdagi topshiriqlarni shakllantirish, qo'shimcha tushuntirishlar berish va o'quv materiallarini turli shakllarda taqdim etish mumkin. O'qituvchi esa AI vositalaridan darsni rejalashtirish, o'quv materiallarini tayyorlash, topshiriqlarni ishlab chiqish va o'quvchilarning faoliyatini tahlil qilishda yordamchi vosita sifatida foydalanishi mumkin.

Shu bilan birga, sun'iy intellektning ta'limga kirib kelishi o'qituvchining rolini kamaytirmaydi. Aksincha, pedagogdan yangi raqamli kompetensiyalarni talab qiladi. Zamonaviy o'qituvchi sun'iy intellektning imkoniyatlari va cheklovlarini bilishi, undan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanishi va o'quvchilarning AI bilan ishlash faoliyatini to'g'ri yo'naltirishi zarur.

Bizning fikrimizcha, ta'limda sun'iy intellektdan samarali foydalanishning birinchi sharti — aniq pedagogik maqsadni belgilashdir. O'qituvchi AI vositasidan foydalanishdan avval undan qanday ta'limiy natijaga erishishni ko'zlayotganini aniqlashi kerak. AI'dan foydalanish faqat vaqtni tejash yoki tayyor javob olish uchun emas, balki o'quvchining bilimini chuqurlashtirish, muammoni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishiga xizmat qilishi lozim.

Ikkinchi shart — mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. O'quvchi AI tomonidan berilgan ma'lumotni tayyor va mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmasligi kerak. U olingan ma'lumotni tahlil qilishi, turli manbalar bilan taqqoslashi, xatolarni aniqlashi va o'z xulosasini shakllantirishi lozim.

Masalan, AI'dan tayyor javob olish o'rniga o'quvchiga muammoni tahlil qilish, turli fikrlarni taqqoslash, berilgan javobning to'g'riligini tekshirish yoki o'z yechimini asoslash vazifasi berilishi mumkin. Bunday yondashuv AI'ni tayyor bilim manbai emas, balki o'quvchining bilish faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vositaga aylantiradi.

Uchinchi shart — o'qituvchi nazorati va pedagogik yo'naltirish. AI vositalari ta'lim jarayonida o'qituvchini almashtirmasligi, balki uning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi lozim. O'qituvchi o'quvchining AI'dan qanday foydalanayotganini kuzatishi,

topshiriqlarni mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni talab qiladigan shaklda ishlab chiqishi hamda yakuniy natijani baholash mezonlarini belgilashi zarur.

Bunda baholash jarayonida faqat yakuniy javob emas, balki o'quvchining fikrlash jarayoni, dalillari, mustaqil xulosasi va topshiriqni bajarishdagi shaxsiy hissi ham hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

To'rtinchi shart — raqamli va AI savodxonligini shakllantirish. O'quvchi sun'iy intellektning asosiy imkoniyatlari, cheklovlari va undan foydalanish qoidalari haqida yetarli tushunchaga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, AI tomonidan yaratilgan ma'lumotlarda xatoliklar bo'lishi mumkinligini anglash, axborotni tekshirish va ishonchli manbalarni ajrata olish muhim hisoblanadi.

Beshinchi shart — etik, xavfsiz va mas'uliyatli foydalanish. Sun'iy intellektidan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, akademik halollik va intellektual mas'uliyat tamoyillariga rioya qilish zarur. O'quvchi AI yordamida yaratilgan materialni to'liq o'zining mustaqil ishi sifatida taqdim etmasligi, undan foydalanish jarayonida o'zining intellektual hissasini saqlab qolishi va zarur hollarda foydalanilgan manbalarni ko'rsatishi lozim.

Oltinchi shart — o'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olish. AI vositalaridan foydalanish shakli o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi, raqamli kompetensiyasi va individual ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak. Bir xil topshiriq yoki AI vositasi turli yoshdagi o'quvchilar uchun bir xil pedagogik samarani bermasligi mumkin. Shu sababli o'qituvchi AI'dan foydalanish darajasi va topshiriqlar mazmunini o'quvchilarning imkoniyatlariga mos ravishda belgilashi zarur.

AI'dan foydalanishning pedagogik modeli

Yuqoridagi pedagogik shart-sharoitlardan kelib chiqib, ta'lim jarayonida sun'iy intellektidan samarali foydalanishning quyidagi ketma-ketligi taklif etiladi:

MAQSAD → AI YORDAMIDA IZLANISH → MUSTAQIL TAHLIL → TEKSHIRISH → XULOSA → REFLEKSIYA

Mazkur modelda har bir bosqich muayyan pedagogik vazifani bajaradi:

1. Maqsad — o'quvchi qanday bilim yoki kompetensiyani egallashi kerakligini aniqlash.
2. AI yordamida izlanish — mavzu bo'yicha ma'lumot, g'oya yoki muqobil yechimlarni izlash.
3. Mustaqil tahlil — olingan ma'lumotlarni o'quvchining o'zi tahlil qilishi va baholashi.
4. Tekshirish — AI tomonidan berilgan ma'lumotlarni ishonchli manbalar bilan solishtirish.
5. Xulosa — o'quvchining o'z fikri va yakuniy qarorini shakllantirishi.
6. Refleksiya — o'quvchining o'z faoliyati, o'rgangan bilimlari va AI'dan foydalanish samaradorligini baholashi.

Ushbu modelning asosiy xususiyati shundaki, unda sun'iy intellekt yakuniy javob beruvchi vosita emas, balki o'quvchining izlanish va fikrlash faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaratiladi.

Mazkur yondashuv o'qituvchining pedagogik faoliyatiga ham yangi talablarni qo'yadi. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchining axborot bilan ishlashini tashkil etuvchi, AI imkoniyatlari va cheklovlarini tushuntiruvchi, tanqidiy fikrlashga yo'naltiruvchi hamda mustaqil xulosa chiqarishini ta'minlovchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Natijada ta'lim jarayoniga yangi texnologik komponent kiritilsa-da, uning markazida inson, uning mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyati va intellektual rivojlanishi saqlanib qoladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi zamonaviy pedagogika oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. AI ta'limni individuallashtirish, o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va mustaqil ta'limni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Biroq ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish texnologiyaning o'ziga emas, balki undan qanday pedagogik maqsad va metod asosida foydalanilishiga bog'liq. Shu sababli ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning asosiy pedagogik shartlari sifatida aniq ta'limiy maqsadni belgilash, mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'qituvchi nazorati va pedagogik yo'naltirishni ta'minlash, AI savodxonligini shakllantirish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish hamda etik va xavfsiz foydalanish tamoyillariga rioya qilishni ko'rsatish mumkin.

Taklif etilgan "maqsad → AI yordamida izlanish → mustaqil tahlil → tekshirish → xulosa → refleksiya" modeli AI vositalaridan foydalanishni oddiy axborot olish jarayonidan faol o'rganish va mustaqil fikrlash mexanizmiga aylantirishga xizmat qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu pedagogik shartlarning amaliy samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash, turli yoshdagi o'quvchilar uchun AI'dan foydalanishning pedagogik modelini takomillashtirish hamda o'quvchilarning mustaqil ta'lim, tanqidiy fikrlash va axborot savodxonligi kompetensiyalaridagi o'zgarishlarni baholash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. — Paris: UNESCO, 2023. — 44 p.
2. Miao F., Cukurova M. AI Competency Framework for Teachers. — Paris: UNESCO, 2024. — 52 p.
3. Miao F., Shiohira K., Lao N. AI Competency Framework for Students. — Paris: UNESCO, 2024. — 80 p.
4. UNESCO. Artificial Intelligence and the Futures of Learning. — Paris: UNESCO, 2024.